


## IX.ISTE'MOL BOZORI


2022- yilning yanvar-mart oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 4 827,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 7,3 foizga o‘sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 185,2 mlrd. so‘mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 642,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, *mlrd. so‘m*



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Samarqand shahri 41,3 %, Urgut tumani 9,5 %, Kattaqo‘rg‘on shahri 6,9 %, Pastdarg‘om tumani 5,0 %, Samarqand tumani 4,7 %, Bulung‘ur tumani 4,3 %, Kattaqo‘rg‘on tumani 4,5 %, Payariq tumani 4,0 %, Jomboy tumani 3,6 % va Ishtixon tumani 3,2 % chakana savdo tovar aylanmasining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

## Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, % da




Viloyatda aholi jon boshiga 2022- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 194,8 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 %ga ko‘paydi. Asosan aholi jon boshiga eng yuqori ko‘rsatkichlar Samarqand shahri (3 542,2 ming so‘m), Kattaqo'rg'on shahri (3 596,7 ming so‘m) va Bulung‘ur tumanlarida (1 061,4 ming so‘m) kuzatildi.

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	<i>Hajmi, ming so ‘mda</i>	<i>O’tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>1 194,8</b>	<b>105,0</b>
Samarqand sh.	3 542,2	109,3
Kattaqo‘rg‘on sh.	3 596,7	102,4
tumanlar:		
Bulung‘ur	1 061,4	102,4
Jomboy	958,7	100,9
Ishtixon	585,1	100,9
Kattaqo‘rg‘on	761,9	102,0
Narpay	535,7	101,4
Nurobod	599,1	101,5
Oqdaryo	683,3	101,1
Payariq	743,7	102,9
Pastdarg‘om	652,2	101,3
Paxtachi	623,5	101,6
Samarqand	859,7	108,2
Urgut	859,2	101,5
Toyloq	593,8	105,6
Qo‘schrabot	668,2	100,8

Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari kuzatilib, o’tgan yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’ati Samarqand shahri va Samarqand, Toyloq va Payariq tumanlarida qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, % da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik savdo korxonalarining hajmi 1 185,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,8 % ni tashkil qildi va umumiylashtirishining 24,6 foizini tashkil qildi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 642,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 75,4 % ga teng kelmoqda.

## Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da

2021- yil yanvar-mart



2022- yil yanvar-mart



Yirik korxonalar  
 Kichik tadbirkorlik


## Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo‘yicha chakana tovar aylanmasi

	Hajmi, mlrd. so‘m	2021- yilga nisbatan, % da	Yakunga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>4 827,7</b>	<b>107,3</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan:</i>			
davlat mulki	0,3	67,8	0,01
nodavlat mulki	4 827,4	107,3	99,99

## 2022- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	Hajmi, mlrd. so‘m	2021- yilga nisbatan, % da	Yakunga nisbatan, % da
<b>Chakana tovar aylanmasi</b>	<b>4 827,7</b>	<b>107,3</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Yirik korxonalar	1 185,2	120,8	24,6
Kichik va mikrofirmalar	1 281,5	107,4	26,5
Norasmiy sektor	2 361,0	101,5	48,9

### Chakana savdo tarkibi, % da



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 128,4 mlrd. so‘nni yoki 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 111,6 foizni tashkil etdi.